

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI VA UNI BOSHQARISH

Xamidova Nilufar Xikmatovna

Chilonzor tumani 309-davlat maktabgacha
ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta'limning asosiy maqsadlari, ta'lim dasturlari, pedagogik kadrlar talablariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ota-onalar va jamiyat ishtirokining ahamiyati ham ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishning asosiy jihatlari, jumladan, boshqaruv strukturalari, sifat nazorati, innovatsiyalar va resurslarni boshqarish masalalari ham yoritilgan. Ushbu jarayonlar maktabgacha ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqola, shuningdek, kelajak avlodning muvaffaqiyatli ta'lim olishida maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, boshqarish, ta'lim dasturlari, pedagogika maktabgacha ta'lim, rivojlanish, ta'lim metodlari, sifat nazorati, innovatsiyalar.

Аннотация: в статье рассмотрены основные цели дошкольного образования, образовательные программы, потребности педагогических кадров. Также подчеркивается важность участия родителей и сообщества. Ключевые аспекты управления дошкольным образованием, включая структуры управления, контроль качества, инновации и управление ресурсами. Эти процессы важны для повышения эффективности системы дошкольного образования. В статье также подчеркивается необходимость развития системы дошкольного образования для успешного воспитания подрастающего поколения.

Ключевые слова: система образования, менеджмент, образовательные программы, педагогика, дошкольное образование, развитие, методы обучения, контроль качества, инновации.

Abstract: the article focuses on the main goals of preschool education, educational programs, requirements of pedagogical personnel. The importance of parent and community participation is also highlighted. Key aspects of preschool education management, including governance structures, quality control, innovation and resource management, are covered. These processes are important in increasing the effectiveness of the preschool education system. The article also emphasizes the need for the development of the preschool education system for the successful education of the next generation.

Key words: educational system, management, educational programs, pedagogy, preschool education, development, educational methods, quality control, innovations.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda qator yirik hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi - faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan. Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatimiz juda tez suratlarda o'zgarmokda. Mamlakatimizning iqtisodiyot, siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar sari yo'nalishi jamiyatning barcha boshqa institutlarida ham o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda menejmentga – dunyoning rivojlangan davlatlarining boshqaruv tajribasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ammo boshqaruv modellarini bir ijtimoiy-madaniy muhitdan boshqasiga o'tkazish amalda mumkin emas, chunki boshqaruv omillarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Boshqaruv shakli, mulkchilik turi va bozorning rivojlanish darajasi turlicha. Shu bois mamlakatimizda menejmentni bosqichma-bosqich joriy etish qayd etilgan omillar bilan tizimli o'zaro hamkorlikda amalga oshirilishi lozim. Boshqaruv tarbiyasi shakllaridan quyidagilarni ta'kidlash zarur: dunyoqarashni kengaytirish ta'limi, bu - iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va ekologik ta'limni o'z ichiga oladi, uning ko'lami menejer yoshi,

madaniy saviyasi va ish tajribasiga bog'liq bo'ladi. Dunyoqarashni shunday o'stirish tufayli ong ma'naviy zamini barpo etiladi; - mehnat musobaqasi, bu - kasbiy musobaqalashuv, malaka oshirishda kuchli omil sanaladi. Boshqaruv tarbiyasining bu shakli turli tanlovlar, ratsionalizatorlik takliflari va h. k.lar yordamida amalga oshiriladi; - boshqaruvda ishtirok etish - boshqaruvga oid qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga oddiy xodimlarni jalb etish (boshqaruv qarori loyihasini jamoa bo'lib muhokama qilish, ijro faoliyatida jamoatchilik asosida qatnashishi va h.k.). Boshqaruvning uch xil vositalari bo'lib, brinchisi, tashkilot, boshqaruv ierarxiyasidir, Bu yerda asosiy vosita - bu odamga yuqoridan ta'sir qilish (faoliyatni rag'batlantirish, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish, shuningdek taqsimlashning asosiy funksiyalaridan foydalanish) boylik va boshqalar.). Ikkinchisi - boshqaruv madaniyati, bularga jamiyat, tashkilot, odamlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va tan olingan qadriyatlar, ijtimoiy normalar, munosabatlar, xatti-harakatlar majmuyi. Uchinchisi esa – bozor, bozor munosabatlari, bular. mahsulot va xizmatlarni sotish va sotib olishga, sotuvchi va xaridor manfaatlari balansiga asoslangan boshqaruvdir. Umuman olganda, menejment deganda rahbarning boshqa odamlarning mehnati, aql-zakovati va xatti-harakatlarining motivlaridan foydalangan holda o'z maqsadlariga erishish qobiliyati tushunilishi mumkin, boshqacha qilib aytganda, bu fan va san'atning uyg'unlashuvidir. Odamlarni boshqarish va ijtimoiy jarayonlar bo'lib, quyidagi ta'rifni berish mumkin: Pedagogik menejment - ta'lim jarayonini boshqarishning uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari va texnologik usullari majmuidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan ishlash tarbiyachidan katta kuch va mas'uliyat talab qiladi, shuning uchun jamoada pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari orasida yaxshi niyat, xushmuomalalik va hurmat, talabchanlik ayniqsa muhimdir. Har bir tarbiyachining shaxsiyatiga hurmat ko'rsatadigan, moyillik, qiziqish, imkoniyatlarni hisobga olgan holda, oqilona talabchanlik bilan birgalikda boshqaruvning avtoritar usullariga qat'iy amal qiladigan rahbar ancha yaxshi natijalarga erishadi. Ishga qiziqishni oshirish va yaxshi muvofiqlashtirilgan jamoani yaratishning eng yaxshi usullaridan biri odamlarni hurmat qilish va ularga mas'uliyat va vakolatlarni topshirishdir. Mas'uliyat ikki holatda paydo bo'ladi, ya'ni tarbiyachiga juda aniq vazifa va mas'uliyat yuklanganda, hamda uning qanday bajarilishini, natijasini so'rashini tushuntirilganda. Jarayonning har bir ishtirokchisiga o'z vazifasining mazmunini tushuntirish, muayyan natijalarga erishish uchun tashkilot majburiy boshqaruv xarakteriga emas, balki ongli ijodiy mehnatga tayanishi lozim. Natijaga asoslangan boshqaruvdagi muhim masala bu "natija" va "hissa" tushunchalarini farqlashdan iborat bo'ladi. Yuqorida keltirilgan sifatlarining uch guruhi bir-biri bilan bog'liq va rahbar axloqiy qiyofasi modulini tashkil etadi. Ahloqiylik - kishilar jismoniy va ruhiy to'laqlonligining muhim subyektiv omili. Jamoa faoliyatining natijasi faqat rahbarning axloqiy sifatlarigagina emas, balki ayrim shaxsning va umumiy jamoaning axloqiy sog'lomligiga ham bog'liq. Shaxs axloqiy sog'lomligi quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi: - axloqiy xis-tuyg'ular, bular xayratlanish, g'urur, shuhratparastlik va nafratlanish kabi subyektiv kechinmalarda ifoda topadi; - xulqiy nuqtai nazar, shaxsning axloqiy tutgan yo'li, uning did-farosati va

yashashdan maqsadi yo‘nalishi bilan belgilanadi, vijdon va burch bularning asosi hisoblanadi; - axloqiy odatlar; - o‘zini tuta bilish xulqi (o‘zini o‘zi baholash, xatti-harakatini nazorat qilish va fidoyilik). Yuqorida keltirilgan jihatlarni bilish rahbarga iqtisodiy va ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan shaxsiy tarkib axloqiy sog‘lomlik monitoringini o‘tkazishga imkon beradi. Kishilar majmuini axloqiy sog‘lom jamoaga aylantirish rahbarning muhim boshqaruv maqsadi hisoblanadi. Bunda rahbar va bo‘ysunuvchilar bir-birlari bilan chiqishib ishlaydilar. Jamoa axloqiy sog‘lomligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi: jamoa a‘zolari axloqiy qadriyatlarining umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishligi. Kishilar o‘z mehnat faoliyatining faqat iqtisodiy mohiyati va texnologik zaruratinigina tushunib qolmay, balki umuminsoniy hissiyotlar, kayfiyat va e‘tiqodlar mezonlariga muvofiq ma‘naviy ehtiyojlarni ham xis etmoqlari lozim. - Zimmadagi vazifani bajarish uchun xodimlarning berilib ishlashligi. Rahbar bergan topshiriqni har bir xodim zimmasiga olishi va uni chuqur tushunishi muhimdir. - Ongli mehnat intizomi xizmat vazifasini qat’iy taqsimlanishi va aniq bajarilishiga, har bir xodim jamoaning iqtisodiy manfaatini yaxshi anglashiga asoslanadi. Xizmat bo‘yicha munosabatning ma‘naviy qoniqtiruvchanligi jamoa a‘zolari o‘rtasidagi rasmiy va g‘ayirasmiy munosabatlarga asoslanadi.

Maktabgacha ta‘lim tizimi, shuningdek, kelajakdagi ta‘lim jarayonining poydevorini yaratadi. Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarish esa uning samaradorligini oshirish va sifatini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ta‘lim maqsadlari: maktabgacha ta‘limning asosiy maqsadi bolalarning umumiy rivojlanishini ta‘minlashdir. Bu jarayonda bolalarga asosiy bilimlar, ko‘nikmalar va axloqiy qadriyatlar beriladi. Ta‘lim jarayoni o‘yin orqali amalga oshiriladi, bu esa bolalarning qiziqishini oshiradi va o‘z-o‘zini ifoda etish imkoniyatini beradi. Ta‘lim dasturlari: maktabgacha ta‘lim dasturlari bolalarning yoshiga va rivojlanish darajasiga mos ravishda tayyorlanadi. Dasturlar ko‘pincha o‘yinlar, ijodiy faoliyatlar, ekskursiyalar va boshqa interaktiv usullarni o‘z ichiga oladi. Bu esa bolalarning o‘zaro muloqot qilish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik kadrlarga talablar: maktabgacha ta‘lim tizimida faoliyat yuritadigan pedagoglar bolalarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular professional bilimga ega bo‘lishlari, bolalar bilan ishlashda psixologik va pedagogik yondashuvlarni bilishlari lozim. Pedagoglarning doimiy ravishda malaka oshirishi va yangi metodlarni o‘zlashtirishi muhimdir. Ota-onalar va jamiyat ishtiroki: maktabgacha ta‘lim tizimida ota-onalar va jamiyatning ishtiroki juda muhimdir. Ota-onalar bolalarining ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishlari, pedagoglar bilan hamkorlik qilishlari kerak. Jamiyat esa maktabgacha ta‘lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash orqali bolalarning rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarish uchun turli xil strukturalar mavjud. Ular orasida davlat organlari, ta‘lim muassasalari rahbariyati, pedagogik jamoalar va ota-onalar kengashlari bor. Har bir darajadagi boshqaruv organlari o‘z vazifalarini bajarishi va ta‘lim sifatini oshirishga hissa qo‘shishi lozim. Ta‘lim tizimida sifat nazorati muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim muassasalarida sifatni oshirish uchun doimiy ravishda monitoring o‘tkazilishi, pedagoglarning faoliyati baholanib borilishi kerak. Buning uchun malakali mutaxassislar jalb qilinishi zarur. Maktabgacha

ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Bu jarayon bolalarning qiziqishini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi. Resurslarni samarali boshqarish muhimdir. Bu moliyaviy, insoniy va moddiy resurslarni o'z ichiga oladi. Resurslarni to'g'ri taqsimlash va foydalanish ta'lim muassasalarining samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning rivojlanishi uchun muhim bosqich bo'lib, uni boshqarish esa bu jarayonning samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ta'lim maqsadlari, dasturlar, pedagogik kadrlar, ota-onalar ishtiroki va boshqaruv strukturalari maktabgacha ta'lim tizimining asosiy jihatlarini tashkil etadi. Innovatsion yondashuvlar va sifat nazorati orqali bu tizimni rivojlantirish kelajak avlodning muvaffaqiyatli ta'lim olishida muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYO VA HAVOLALAR:

1. Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.:2016y. 29- dekabr.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, O'zbekiston, 1999.
3. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. –T.: Voris-nashriyoti 2006. - 259 b.
4. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI VA UNI BOSHQARISH .Botirova Halima Qoyirovna .
5. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISH "MENEJMENT" TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI .Botirova Zuhraxon.
6. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/226/208>